



**RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON
KAPITALINI RIVOJLANTIRISH:
IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN**
Chirchiq, 2025-yil 25-aprel

**HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT IN A
DIGITAL SOCIETY: OPPORTUNITIES
AND PROSPECTS
INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND
PRACTICAL CONFERENCE**
Chirchik, April 25, 2025

**РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО
КАПИТАЛА В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ:
ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ**
Чирчик, 25 апреля 2025 г.



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH:
IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
TASHKILIY QO'MITASI**

Rais: G.I.Muxamedov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

B.X. Eshchanov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

S.B. Qorayev – Yoshlar masalalari va ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor

D.B. Axmadjanov – O'quv ishlari bo'yicha prorektor

O.A. Ortiqov – Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor

S.X. Gayupova – Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i

F.A. Ikramov – Texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi boshlig'i

R.A. Ikramov – Gumanitar fanlar fakulteti decani

G.G'. G'affarova – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası mudiri

Tashkiliy qo'mitaning ishchi guruhi:

N.A. Nazarov – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası professori

M.X. Borotov – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası professori

Sh.X. Tog'ayev – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası dotsenti

B.M.Qandov – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası dotsenti

G.S. Raxmonva – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası dotsent v.b.,

F.A Ibroximov – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi

A.A. Yo'ldoshev – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

O.T. Berkinov – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

D.A. Norboyeva – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası magistranti



rag‘batlantirish va ijtimoiy faollikni oshirish masalalari kelajakda bizni kuttirib turgan muammolarni hal qilishda muhim omil bo‘ladi.

O‘ZBEKISTONDA KIBERXAVFSIZLIK SOHASIDAGI MAVJUD KAMCHILIKLAR TAHLILI

Berkinov Oybek Toxir o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrası o‘qituvchisi

oybekberkinov98@gmail.com

ANNOTATSIYA. Kibertahdidlarning kuchayishi ko‘plab davlatlarga qator masalalarning yechimini topish lozim ekanligini taqozo etmoqda. Jumladan, O‘zbekistonda ham kiberxavsizlik sohasida bir qancha kamchiliklar mavjud. Ushbu maqolada yurtimizda kiberxavsizlik sohasidagi kamchiliklar tahlil etilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kiberxavsizlik, kibernakon, strategiya, AKT, virtual axloq.

Kibertahdidlarga qarshi kurash masalasiga yutimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib bormoqda. Bugungi axborot texnologiyalari yuksak darajada rivojlangan davrda xavsiz axborot muhitini yaratish, himoyalangan tizimlar asosida ishlash, insonlarda davlat, davlat organlari, tashkilotlar va muassasalarning elektron tizimlardan to‘g‘ri foydalana olish madaniyatini oshirish borasida bir qancha huquqiy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, ertangi kun egalari bo‘lgan yoshlarni virtual tahdidlardan himoya qilish, yoshlarda “virtual axloq”ni shakllantirish dolzarbligi ta’kidlanmoqda.

Afsuski, butun dunyoda kechayotgani kabi O‘zbekistonda ham xavsizlikni ta’minlash to‘laqonli natija bermayapti. Axborot va kiberxavsizlikni ta’minlash bo‘yicha tegishli huquqiy, tashkiliy, texnik va boshqa chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvdan foydalanish talab etiladi[1].

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasining kiberxavsizlik sohasidagi milliy manfaatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelayotgan ayrim dolzarb tashqi va ichki tahdidlarga quyidagilarni keltirish mumkin, jumladan:

- davlat va xususiy sektorning axborot tizimlari va resurslari, shuningdek, telekommunikatsiya tarmoqlari va muhim axborot infratuzilmasiga nisbatan axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda transchegaraviy jinoyatchilikning o‘ssishi. Kibernakon o‘zining asimmetrik tabiati va potentsial jiddiyligi bilan milliy xavsizlik manfaatlarining asosiy mavzusiga aylandi[2]. An’anaviy urushlarda davlatlarning chegarasi aniq belgilanganligi bilan kelajakda kelajakdagi hatti-



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

harakatlarning trayektoriyasini belgilay olish imkoniyati bo'lsa, kibermakondagi transchegaraviy tahdidlarni oldindan aniqlab bo'lmaydi;

- rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi texnologik tafovutning ortib borishi kontekstida, respublikamiz axborot tizimlari va resurslari, hamda muhim axborot infratuzilmalarini himoya qilish maqsadida, chet el texnologiyalari va dasturlaridan foydalanishga bog'liqligining oshib borayotganligi. Biz boshqa davlatlarning texnologiyalaridan foydalanishimiz oqibatida muhim axborotlarni oshkor qilmoqdamiz. Inson, jamoa va tashkilotning samarali faoliyati ko'p jihatdan axborotga egalik darajasi va undan samarali foydalanish imkoniyatiga bog'liq[3]. Bu jarayon jamiyat oldiga kuchli himoyaga ega bo'lgan milliy texnologiyalar va dasturlarni ishlab chiqishni vazifa qilib qo'yadi;

- O'zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta'minlashda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan tayyorlangan kiberxavfsizlik vositalari, texnikalar, dasturlar va qurilmalarning yetishmaslik muammosi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekistonda elektron qurilmalar uchun dastur ishlab chiqaruvchi birorta ham nufuzli kompaniyaning yo'qligi AKTga ixtisoslashtirilgan Oliy ta'lim muassasalarining faoliyatiga salbiy baho beradi;

- respublika davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari (keying o'rinlarda – Davlat idoralari)ning axborotlashtirish darajasi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan ortda qolayotganligi. Info@mixmode.ai saytining hisobotlariga ko'ra 2024-yil kiberxavfsizlikning xalqaro indeksi bo'yicha O'zbekistonning 58-o'rinni egallab turganligi[4] quvonarli holat emas;

- kiberjinoiyatchilik hamjamiatlari, xalqaro ekstremistik, terroristik va boshqa jinoiy guruh va tashkilotlarning kibermakondagi faoliyatining keskinlashuvi;

- respublikamizning muhim axborot infratuzilmasi, axborot tizimlari va resurslari, telekommunikatsiya tarmoqlarini yaratish va rivojlantirishda davr talabiga mos kelmaydigan, ma'nan va texnik jihatdan eskirgan qurilmalar, uskunalar, litsenziyasiz dasturiy ta'minotdan foydalanish holatlari davom etayotganligi;

- mamlakatimiz kiberxavfsizligini kuchaytirish bo'yicha Davlat idoralari faoliyatining sust muvofiqlashtirilishi va kibermakonni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yetarli darajada emasligi;

- zamonaviy AKTlar kiberxavfsizligini ta'minlash masalalarini tartibga soluvchi amaldagi me'yoriy-huquqiy bazaning sayozligi, xalqaro standartlashtirish masalalarida sust tadbir etilayotganligi;

- kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasida malakali mutaxassislarning yetishmasligi, ushbu sohada kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining talab



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

darajasida emasligi kabi va boshqa qator salbiy omillarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Mazkur sohada quyidagi bir qator dolzarb masalalar o‘z yechimini kutib qolmoqda:

- respublika miqyosida barqaror kiberxavfsizlikni ta‘minlashda hanuzgacha yagona tamoyil va yondashuv asosida amalga oshirish masalalari (kiberxavfsizlik strategiyasi) ochiqlicha qolmoqda. Kiberxavfsizlikni ta‘minlashda mamlakat bo‘ylab tizimli ishlaydigan mexanizmni yaratishda kiberxavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish davr talabidir. Xalqaro elektraloqa ittifoqi (About International Telecommunication Union – ITU) saytida 102 ta davlatning kiberxavfsizlik strategiyasi e‘lon qilindi[5]. MDH mamlakatlaridan Armaniston, Ozarbayjon, Belarusiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston davlatlari shu ro‘yxatdan joy olgan. Afsuski, ushbu ro‘yxatda O‘zbekiston kiberxavfsizlik strategiyasi mavjud bo‘lmagan davlatlar qatoridan joy olgan;

- kiberxavfsizlik masalalariga yagona yondashuvni belgilovchi muhim normativ-huquqiy asoslarni belgilab beruvchi hujjat, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizligini ta‘minlashga mo‘ljallangan konsepsiyasini ishlab chiqish masalasi mantiqiy yakuniga yetkazilmagan;

- muhim axborot infratuzilmalarning kiberxavfsizligini ta‘minlashda davlat boshqaruvi organlarining o‘rni va rolini kuchaytirish vazifalarining ustivorligi ushbu organlar rahbariyati nazaridan qisman chetda qolmoqda;

- axborotlashtirish va muhim axborot infratuzilmasi ob‘ektlarini kiberxavfsizligini ta‘minlash talablariga doir bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning yopiqligi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari – (XDFU) belgisi ostida qabul qilingan. Bu esa, axborotlashtirish ob‘ektlarini attestasiyadan o‘tkazish, kiberxavfsizlikni ta‘minlash talablarini nodavlat tashkilotlarga – dasturiy mahsulotlarni ishlab chiquvchilar va yetkazib beruvchilarga yetkazilishiga to‘sqinlik qilgan);

- axborot tizim va resurslari egalarida (tashkilotlarda) aniqlangan kamchiliklarni to‘g‘ri va aniq tahlil qiladigan salohiyatli mutaxassislar salmog‘i zamon talabiga mos emas;

- davlat organlari va tashkilotlarning axborot tizim va resurslarida kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizalar o‘tkazish jarayonida aniqlangan zaifliklarni ularni egalari tomonidan o‘z vaqtida va sifatli bartaraf etish masalalari qoniqarsiz;

- kiberxavfsizlik yo‘nalishiga ajratiladigan moddiy-texnik ta‘minotning sohada vujudga kelayotgan vaziyat va belgilangan vazifalarni to‘laqonli amalga oshirish imkoniyatini yaratish uchun yetarli darajada emas;



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

- sodir bo'lgan kiberxavfsizlik hodisasi yuzasidan aniqlangan zaifliklar, IPmanzil ma'lumotlarini hamda kiberxavfsizlik hodisalarini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlarni vakolatli organga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilmaydi.

O'z o'rnida, yuqorida keltirilgan salbiy omillarning bartaraf etilishi quyidagi vazifalarni ijobiy hal etilishini taqazo etadi. Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasining kiberxavfsizligini ta'minlash maqsadida, 2024-2030 yillarga mo'ljallangan kiberxavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-apreldagi O'RQ-764-sonli “Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi Qonuni talablarini bevosita ijrosini ta'minlashga qaratilgan qonunosti huquqiy-normativ hujjatlar to'plamini shakllantirishni mantiqiy yakuniga yetkazish;

- O'zbekiston Respublikasi axborotlashtirish ob'ektlarida konfidensial axborot bilan ishlash hamda ularning xavfsizligini ta'minlashni tartibga soluvchi normativhuquqiy hujjat ishlab chiqish (davlat sirlari bundan mustasno);

- axborotlashtirish va muhim axborot infratuzilmasi ob'ektlarini kiberxavfsizligini ta'minlash talablariga doir bir qator me'yoriy-huquqiy xujjatlarning maxfiylik darajasini (XDFU) olgan holda, xujjatlarni ochiqqligini ta'minlash;

- muhim axborot infratuzilmalarning kiberxavfsizligini ta'minlashda davlat boshqaruvi organlari rahbarlarini o'rni va rolini kuchaytirish;

- kiberxavfsizlik bo'yicha huquqiy, texnik, tashkiliy choralar ko'rish, kiberxavfsizlik salohiyatining rivojini monitoring qilish va bu masalada halqaro hamkorlik kelishuvlarini o'rnatish, davlat organlari va tashkilotlarida axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash tadbirlari doirasida rejali kiberxavfsizlik auditlarini o'tkazish;

- axborot texnologiyalariga oid huquqbuzarliklar va jinoyatlarni xatlovdan o'tkazgan holda, bugungi kun talablariga to'liq javob beruvchi, axborotkommunikatsiya texnologiyalariga nisbatan yoki ulardan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning yangi turlari uchun javobgarlikni belgilash zarur.

Shu bilan birga, kiberxavfsizlik sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida:

- axborot va kiberxavfsizlik mutaxassislarini malakasini doimiy ravishda oshirib borish va ularga qo'yiladigan talablarni ilmiy asoslangan tarzda belgilash zarur;

- har bir ishlab chiqilgan yoki ishlab chiqilayotgan axborot tizimi yoki resursni avvalgi loyihalarda aniqlangan kamchiliklarni qaytarilishiga yo'l qo'ymaslik lozim;

- davlat axborot tizimlari va resurslarining kiberxavfsizligini ta'minlash yuzasidan talablarini, axborot va kiberxavfsizlik hodisalari va insidentlarini oldini olish,



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ularga chora ko‘rish va hodisalarning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha me‘yoriy-xuquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va izchil tadbiq etish zarur.

Bundan tashqari, yuqoridagilarni inobatga olgan holda, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari axborot tizimlari va resurslari, muhim axborot infrutuzilmasi ob‘ektlarida axborot va kiberxavfsizlikni ta‘minlanganlik holatini takomillashtirish va sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Raximov M.A. O‘zbekiston Respublikasi kiberxavfsizlik sohasida mavjud strategik masalalar va ularning istiqbolli yechimlariga. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi “IT-xavfsizlik qalqoni. Harbiy sohaga axborot texnologiyalarini integratsiya qilishdagi muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to‘plami. 2024. 63-b.
2. Osborn, Phillip. “Cyber Border Security – Defining and Defending a National Cyber Border.” *Homeland Security Affairs* 13, Article 5 (October 2017). <https://www.hsaj.org/articles/14093>.
3. G.H.To‘rayeva, D.H.Fayziyeva. / [Matn]: o‘quv qo‘llanma - Buxoro : “BUXORO DETERMINANTI” MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023. - 156 b.
4. Highest and Lowest Risk Countries Cyber Threats Worldwide 2024. <https://mixmode.ai/blog/global-cybercrime-report-2024-which-countries-face-the-highest-risk/>
5. National Cybersecurity Strategies Repository 2024. <https://www.itu.int/en/ITU-D/Cybersecurity/Pages/National-Strategies-Repository.aspx>



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

46.	<i>Раджапбоева Хуриида Махсудовна</i> ШАРОФ РАШИДОВ КАШМИР ҚЎШИҒИДА ТАБИАТ ВА ИНСОН ГЎЗАЛЛИГИНИНГ БУЮК УЛУҒВОРЛИГИНИНГ КЎП ҚАТЛАМЛИ ТАЛҚИНИ	204
47.	<i>Xolmaxmatov Azim Hazratkulovich</i> YOSHLAR ORASIDA UCHRAYOTGAN ENG DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI BO‘YICHA KO‘RILAYOTGAN CHORALAR XUSUSIDA	210
48.	<i>Salimov Ilhom Ergash o‘g‘li</i> ZAMONAVIY TA‘LIM TIZIMIDA NOTIQLIK SAN‘ATINING AHAMIYATI	214
49.	<i>S.M. Ro‘zimurodov</i> YOSHLARDA SALOMATLIKNI YUKSALTIRISHDA IJTIMOIIY MUHITNI AHAMIYATI	217
50.	<i>Berkinov Oybek Toxir o‘g‘li</i> O‘ZBEKISTONDA KIBERXAVFSIZLIK SOHASIDAGI MAVJUD KAMCHILIKLAR TAHLILI	220
51.	<i>Джуроева Нигора Авазовна</i> ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ПАРАДИГМЫ: ВЛИЯНИЕ МИФОЛОГИИ, ИСТОРИИ И ТЕХНОЛОГИЙ НА СОЗНАНИЕ ЧЕЛОВЕКА	225
52.	<i>Ли Е.В.</i> РОЛЬ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ КРЕАТИВНОСТИ ЛИЧНОСТИ	229
53.	<i>Shukurova Dildora Xamzayevna</i> XALQ TA‘LIMDA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH MASALALARI	233
54.	<i>F.A.Ibroximov</i> IJTIMOIIY TARMOQLARNING INSONLAR DUNYOQARASHI VA YOSHLAR MA‘NAVIYATIGA TA‘SIRI	238
55.	<i>Mustayev Ruslan Damirovich</i> IJTIMOIIY-AXLOQIIY QARASHLARINING GERMENEVTIK TAHLILI	247
56.	<i>Yo‘ldoshev Avazbek Abdurashid o‘g‘li</i> O‘ZBEKISTON SHAROITIDA SUN‘IIY INTELLEKTNI SOHALARARO JORIY ETISH: TAHLIL VA NATIJALAR	250
57.	<i>Кудайкулова Г., Шакирова М., Жеенбекова А.А.</i> ОСМОНОВДУН ЧЫГАРМАЛАРЫНДА -ЧЫ МҮЧӨСҮ МЕНЕН ЖАСАЛГАН АЙРЫМ СӨЗДӨР	256
58.	<i>Tursunov Rahmonali Bozorboy o‘g‘li</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O‘QUV SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA KOMPETENTSIYAVIY TALABLAR VA FUNKSIYALARINING O‘ZGARISHI	264
59.	<i>Ergashev Humoyun Samad o‘g‘li</i> ZAMONAVIY DUNYOQARASH MOHIYATI VA UNGA TURLI YONDOSHUVLAR	272
60.	<i>Сулайманова Шохсанам Абсаматовна</i> ШАРОФ РАШИДОВ – “ҚИЗИЛ ЎЗБЕКИСТОН” ГАЗЕТАСИ БОШ МУҲАРРИРИ (1947-1950 й.)	279